

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14827416>

O‘QITUVCHI AXBOROT-TAHLIL KOMPETENTLIGI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Pardaev Bekmurat

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

Olimlar XXI asrni axborot asri sifatida e’tirof etishmoqda, boisi, bugungi mavjud axborot oqimi turli soha mutaxassislarni shoshirib qo‘yayotganligi ayni haqiqat. Shu sabab shaxsning axborot-tahlil kompetentligini davrning o‘zi taqozo etmoqda. Ayniqsa ta’lim muhitida uning subyektlari axborot-tahlil ko‘nikmalarini tartibga solish birlamchi vazifa hisoblanadi. Maqolada o‘qituvchi axborot-tahlil kompetentligi muammosi xususida fikr yuritiladi.

O‘qituvchilarning axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va nazariy-metodologik asoslari professor M.E.Jumayev tomonidan tadqiq qilingan. Olim axborot kompetentligi rivojlanishini har jihatdan asoslash va o‘rganish zarurligi hamda pedagog shaxsining rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishini ta’kidlagan. M.E.Jumayev ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning nazariy va tashkiliy-pedagogik asoslarini ilmiy asoslagan. Inoyatovning yozishicha, o‘qituvchining boshqaruv va nazorati har bir sohada raqobat muhitini vujudga keltirib, rivojlanish, yuqori sifat va samaradorlik omili bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi faoliyati axborot-tahlil kompetentligiga tayanadi [2;98].

Pedagog olimi R.A.Mavlyanova o‘qituvchi axborot-tahlil kompetentligini yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalashda o‘qituvchi egallashi shart bo‘lgan kompetensiya sifatida qaraydi [120].

U.Sh. Begimqulov axborot-tahlil kompetentligini o'qituvchining nazariy bilimlar to'plamini yaxshi o'zlashtirib, mazkur bilimlardan ma'lum didaktik muammolarni hal etishni talab etuvchi faoliyatda qiyinchiliklarsiz o'tish imkoniyati", deb baholaydi [1; 63-b.].

Axborot-tahlil kompetentligi shaxsning kasbiy axloq, axborot olish odobi, axborot-tahlil olish madaniyatning yuqori darajasini belgilaydi. I.A.Yuldoshev axborot-tahlil kompetentligini "o'zida bilim, ko'nikma, malakalar tizimini uyg'unlashtirgan, masalalarni hal etish usullarini jamlagan mutaxassis shaxsining integrativ xususiyati sifatida ta'riflaydi. Kompetentlikning psixologik asosi muntazam ravishda o'z malakasini oshirish, kasbiy-professional o'sishga tayyorlik bo'lib hisoblanadi" deya baho bergan [8; 45-b.].

Zamonaviy ta'limni axborot-tahlil kompetentligi tushinchasi bilan bir qatorda axborot-kommunikatsiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular ko'rgazmali tasvirlarni jalb qilish orqali o'quv materiallarning yanada qiziqarli bo'lishiga, o'qitish sifatini va talabalarning o'rganishga bo'lgan intilishlarini oshirishga yordam beradi.

Biz yuqorida sanab o'tilgan mamlakatimiz va xorij olimlarining fikrlariga qo'shilgan holda ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyat kompetentligi, pedagogik muloqot kompetentligi, o'qituvchi shaxsiy kompetentligi, ish natijalari, o'quv va ta'lim kompetentligiga ega bo'lish zarurligini e'tirof etamiz.

Aksariyat tadqiqotchilar o'qituvchi kompetentligini kasbiy malakaviy sifat deb hisoblaydilar, bu esa o'qituvchining professional kompetentligi tarkibida kamida kasbiy bilim, mahorat va professional jihatdan muhim shaxsiy xususiyatlar mujassam bo'lishini talab qiladi. Shu bilan birga, biz har bir o'qituvchida axborot-tahlil kompetentligi bo'lishi zarurligini alohida e'tirof etgan bo'lardik, ya'ni kasbiy kompetentli o'qituvchi bo'lish uchun axborot-tahlil kompetentligi muhim shaxsiy xususiyatga aylanishi zarur.

Shunga ko'ra, o'qitish jarayonida pedagoglarda axborot – tahlil muhitida o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish sharoitida o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi, dunyoni yaxlit tushunishi va axborot

dunyoqarashi, hayotda mo'ljalni to'g'ri olishlari uchun zarur bo'ladigan yangi kompetensiyalar shakllantirishlashini ta'minlaydt. Bu xususida T.Y.Parshina maktab dasturining tayanch kursini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan talabalar o'z bilimlarini tanish vaziyatlarda qo'llashga o'rganadilar, diplomga ega bo'ladilar, ammo axborot bilan mustaqil ishlash va bilim egallashni bilmaydilar, axborot jamiyatida muvaffaqiyatga erisha olmaqdshshshsh ta'kidlaydi. Shuning uchun zamonaviy umumiy ta'lim maktablaridagi asosiy muammolaridan biri sifatida axborot-tahlil kompetentligi e'tirof etiladi. T.Y.Parshina shaxs rivojlanishining turli yosh davrlarida, masalan, maktabgacha davrda – birinchi navbatda shaxsiy va kommunikativ; maktab davrida umummadaniy, o'quv-bilish, axborot, tahlil, kommunikativ; kasbiy tayyorgarlik davrida esa qadriyatli-mazmunli, umummadaniy, ijtimoiy-mehnat, axborot, tahlil kommunikativ, siyosiy va ijtimoiy, ko'pmadaniyatli jamiyatda yashash kompetentliklari, butun umr davomida ta'lim olish qobiliyati va istagini amalga oshiruvchi turli asosiy kompetentliklarni shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi[5;11].

O'qituvchilarning axborot-tahlil kompetentligi tushunchasi bugungi kunda mamlakatimizda aniq va mukammal ochib berilmagan va ilmiy jihatdan mustahkamlanmagan. Mualliflar mazkur tushunchaning talqini xususida turlicha munosabat bildiradilar. Hozirgi vaqtda axborot-tahlil madaniyati atamasi qo'llanadigan qator ishlar mavjud bo'lib, bunda, bizning fikrimizcha, axborot kompetentligi to'g'risida gap boradi, ayrim tadqiqotlarda mualliflar axborot-tahlil kompetentligi va axborot-tahlil madaniyati atamalarini sinonimlar sifatida qo'llaydilar. Ammo mazkur tushunchalarni farqlash lozimdir.

“Axborot-tahlil kompetentligi” tushunchasi tadqiqotchilar tomonidan tor va keng ma'noda o'rganiladi. Tor ma'noda axborot kompetentligi axborotni izlash, qabul qilish, qayta ishlash, taqdim etish, uzatish uchun yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalar va metodlardan foydalanish ko'nikmasi bilan bog'lanadi. Bizning fikrimizcha, axborot-tahlil kompetentligi nafaqat axborot bilan ishlash uchun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi bilan, balki axborotni tahliliy qayta ishlashni amalga oshirish, axborot-tahlil tizimi sifatida kutubxonadan foydalanib

axborot-izlash vazifalarini hal qilish, ya'ni an'anaviy texnologiyalardan foydalanish bilan axborot faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq.

O'qituvchi kasbiy kompetentligi tarkibida ochiq ta'lim sharoitlarida mustaqil axborot-tahlil faoliyatiga tayyorlik darajasini belgilovchi quyidagi kompetentliklarni ajratish zarur:

- axborotli;axborotni izlash, qabul qilish, ishlov berish, taqdim etish va uzatish, axborotni umumlashtirish, tizimlashtirish va bilimlarga aylantirishning universal usullari sifatida;

- modellashtiruvchi;universal tadqiqotchilik, tushunishni va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi sifatida;

- nazorat-baholash, gnostik;sifat va miqdoriy baholar, o'z-o'zini baholash, "portfelli" yondashuv;

- mobil;boshqaruv, tashkiliy, konstruktivning integratsiyasi sifatida;

madaniy-qadriyatli;ta'limga fuqarolik ta'limining prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi madaniy va intellektual qadriyatlarni o'zlashtirishga kabi qarashlarni kirituvchi;

- kommunikativ (ijtimoiylashuvga, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, samarali kommunikatsiyaga, hamkorlikka, ochiq ta'lim muhitida o'z-o'zini o'qitishga, ko'p madaniyatli jamiyatda yashashga, tolerantlikka yordamlashuvchi).

A.K. Raximov o'qituvchining axborot-tahlil kompetentligiga pedagogning axborot bilan maqsadga muvofiq ishlash va uni olish qayta ishlash va uzatish uchun axborotlashtirish vositalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi sifatida qaraydi [6; 15-b.].

O'qituvchisining axborot-tahlil kompetentligining shakllanishi muammosining mavjud holatini ko'rib chiqishda B.X.Xodjaevning maqsad, mazmun, metodlar, tashkiliy shakllar va o'qitish vositalari o'zaro bog'liq komponentlarning majmui iborat o'qitishning pedagogik tizimiga tayanamiz. B.X. Xodjaevga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligining shakllanishi boshqariladigan rivojlanishning maqsadi o'qituvchining ta'lim-tarbiyaviy, o'qituvchilik,

o'quv-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik va madaniy-ma'rifiy faoliyati davomida yuzaga keladigan kasbiy va nokasbiy axborot ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan individual axborot faoliyatini optimal amalga oshirish imkoniyatidan iborat [7;54].

G.V. Zlotskiy o'qituvchi axborot-tahlil kompetentligini shakllantirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi kerakligini ko'rsatadi [3;28]:

- talabalarni shaxsiy kompyuter bilan ishlash usullari va metodlariga o'rgatish (agar ular bu usullarni egallamagan bo'lsalar);

- talabalarni internet global kompyuter tarmog'ida, shuningdek lokal kompyuter tarmoqlarida ishlash usullari va metodlariga o'rgatish (agar ular bu usullarni egallamagan bo'lsalar);

- talabalarda internet yordamida dolzarb axborotni va fanlar bo'yicha pedagogik materiallarni olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- AKTning keng miqyosini egallash va ulardan dars va darsdan tashqari faoliyatda amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning turli ko'rinishlarini o'tkazishda foydalanishni o'rganish;

- talabalarga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning axborot-tahlil kompetentligini shakllantirishga imkon beruvchi didaktik, psixologik-pedagogik va pedagogik usullarni o'rgatish.

Axborot kompetentlikning shakllanishining mumkin bo'lgan yo'llarining tahlilida u yoki bu mutaxassisning axborot kompetentligi o'z ichiga nimalarni kiritishini aniqlash zarur.

I.A.Yuldoshev o'qituvchi axborot-tahlil kompetentligining tarkibini quyidagi vosita va metodlardan foydalanish sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalar tashkil etishini ta'kidlaydi:

- zarur materiallarni izlash va to'plash, axborotni kiritish vositalaridan foydalanish, ya'ni skanerlar, raqamli fotokameralar va videokameralar, MIDI-qurilmalar, mikrofon va boshqalardan foydalanishni bilish, zarur axborotni topish uchun axborot-izlash tizimlari va internet resurslaridan foydalanish ko'nikmasini egallash;

- mavjud axborotni saqlash, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan, matnli, grafik, ovozli va video axborotni integratsiyalovchi elektron hujjatlarni yaratish uchun texnik vositalardan, o'quv jarayoniga mos axborot-tahlilni tanlash uchun internet axborot resurslardan foydalanishni bilish;

- to'plangan axborotlarga ishlov berish, ta'lim jarayonini samarali boshqarishni avtomatlashtirish uchun tayyor dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikmasini egallash;

- dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda multimedia vositalaridan foydalanish; multimedia o'quv dasturlarini yaratish; o'quv mashg'ulotlarida internetdagi axborotga ishlov berish resurslaridan foydalanishni bilish;

- qayta ishlangan o'quv axborotni uzatish, o'quv maqsadlarida kompyuter tarmoqlari, elektron pochta, konferentsiyalar, chatlar va boshqa vosita hamda texnologiyalar, axborotlarni qayta ishlashning taqsimlangan tizimlarining asosiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishni uddalash.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchilar axborot-tahlil kompetentligini rivojlantirish davrning dolzar va o'z navbatida murakkab pedagogik va psixologik muammosidir. O'qituvchining axborot-tahlil kompetentligi sifati uning kognitiv-bilish va operatsional-texnologik ko'nikma, tajribasiga asoslangan axborot-tahlil kompetentligi individda axborot faoliyatini sifatli amalga oshirishga ichki motivatsiyaning, mazkur faoliyatga qadriyatli munosabat mavjudligini nazarda tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2007.

2. Jumayev M. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va pedagogikasi. – Toshkent: «Ilm ziyo», 2005. – 223 b.

3. Злотский Г.В. О психолого-педагогической подготовке студентов математиков университетов к профессионально-педагогической деятельности // «Таълим муаммолари».– Т.;, 2000. – №2. – С. 28-30.

4. Mavlonova R.A. va boshqalar. Ijtimoiy pedagogika // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «Istiqlol», 2009. – 142 b.

5. Паршина Т.Й.. Развитие когнитивной компетентсии студентов педагогических вузов процессе обучения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.п.н. Екатеринбург, 2012.

6. Raхimov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish pedagogikasini takomillashtirish («Evoluytsion ta’limot» fanini o‘qitish misolida). Ped. fan. dok. (DSc) ... dis. – Toshkent, 2019.– 296 b.

7. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Ped. fan. dok. ... dis. Toshkent. 2016.

8. Yuldoshev I.A. Tarmoq texnologiyasi asosida «Informatika va axborot texnologiyalari» fanini o‘qitish samaradorligini oshirish pedagogikasini takomillashtirish. Ped. fan. fal. dok. (PhD) ... diss. avto. Toshkent, 2019. – 47 b.